

Zavq

Charhobning soyasida,
Salqinlab yotganmisiz?
Boshqni yostiqlib,
Xayolga botganmisiz?

Tabiat kunga moslab
Ust-boshini keng tikar.
Avji o‘rim, havo dim,
Chigirtka ham entikar.

Cho‘qqilarning qo‘ynida,
Qordiq olar bulutlar.
Pisib yotar inida
Zag‘izg‘on, Gulovutlar.

Ang‘izdagi bedovlar,
So‘nadan bezillashar.
Chumolilar tinmaydi
Avjida qizg‘in xashar.

To‘rg‘ay ko‘kda muallaq,
Olqishlab qo‘shiq aytar.
Qanotlarin qoqmasdan,
Quyoshni to‘sib aytar.

Bunday zavq shoir uchun
Topilar qachon? Qayda?
Xirmondan sado kelar,
— Xo‘p mayda-yu, xo‘p mayda!

Ilinj

Bobom ekkan olmurut,
Hovlimizning to‘rida.
Yulduz sanab yotibman,
Odmi yog‘och so‘rida.

Ajab, nokday xipcha bel,
Go‘yo zo‘ldir yombilar.
Barg ostidan mo‘ralab,
Ko‘zlaringni yondirar,

Bandi mo‘rt-da, bu meva,
Tong pallasi to‘kilar.
Ukamning yo‘lin poylab,
Onam intiq o‘kinar.

Nabiralar sog‘inchi,
Har qadamda bilinib.
Olmurutdan bo‘yraga.
Qoqi solar ilinib.

Odmi yog‘och so‘rida,
Xayollarga botib man.
Xom-xatala she‘rimni,
Qayta ishlab yotibman.

Tursunboy Adashboyev
O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasidan.